IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2 ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

SHAXTA ATMOSFERASINI SOG‘LOMLASHTIRISH CHORA TADBIRLARINI ISHLAB CHIQISH

O.Sh. Yormatov[1].,

[1]Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrasi 3d-20KI guruh talabasi.,

U.T. Toshtemirov[2]

[2]Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali Konchilik ishi kafedrasi dotsenti v.b., texnika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada xavfli ishlab chiqarish obyekti hisoblanadigan shaxta atmosferasini sog‘lomlashtirish chora tadbirlarini ishlab chiqish bo’yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: Yer, foydali qazilma, sanoat, korxona, atrof muhit, tog’ jinsi, chang, atmosfera.

Shaxta atmosferasini sog‘lomlashtirishda quyidagilar tavsiya etiladi: shpurlarni burg‘ilashda suv bilan yuvish yoki quruq chang ushlagichlardan foydalanish; portlatishdan keyin shamollatishning murakkab usulini qo‘llash; kavjoyga portlatishdan oldin va portlatishdan keyin suv sepish; shpur zaryadlari bilan birgalikda suv to‘ldirilgan qoplarni portlatish; shpurlar tiqini sifatida suvdan foydalanish ya’ni qumli loy tiqinlaridan umuman to‘liq voz kechish kerak.

Yer osti kon ishlarida xavfsizlik yagona qoidalari talablariga ko‘ra changning miqdori shaxta (kon) havosining bir metr kub tarkibida 2 mg dan oshmasligi kerak. Shamollatishning murakkab usuli qo‘llanilganda kavjoyidan changni havo yordamida olib ketish 2-3 baravar boshqa usullarga nisbatan samaradorligi aniqlangan. Shaxtada har bir kavjoy alohida toza havo oqimi bilan shamollatishda ham sog‘lom muhit yaratiladi.

Olmaliq kon-metallugiya kombinatini sanoat ob'yektlari uchun 25,0 ming gektar yer maydoni, Angren ko‘mir havzasiga 23 ming gektar, Sharg‘un ko‘mir koniga 3 gektar yer maydoni ajratilgan. O‘zbekistonda hozirga kelib qazib olingan foydali qazilmalar 250 mln. tonnaga yetgan, qoplama jinslarni ochish hajmi ham shu o‘lchamdan kam emas.

Foydali qazilmalarni qazib olishni to‘xtatish yoki ularni kamaytirishni albatta iloji yo‘q. Bu masalani yechish 3 ta yo‘nalashda olib borilmoqda:

- shunday qazib olish tizimini qo‘llash kerakki unda yer yuzasining butunligi buzilmasin;
- foydali qazilmalarni qazib olish natajasida yer qobig‘ida hosil bo‘lgan bo‘shliqlardan oqilona foydalanib sanoat korxonalarini joylashtirish, omborlar hosil qilish, sovutgichlar sifatida foydalanish va boshqa maqsadlarda foydalanish kerak;
- hozirgi zamon shaharlaridagi katta maydonlarni egallab turgan sanoat korxonalarini ularga olib boriladigan yo‘llarni, omborlarni, avtomashina saroylarini, savdo do‘konlarini, restoranlarni, kino-teatrlarni maxsus qurilgan yer osti lahimlariga joylashtirish.

Sanoat korxonalari oqova suvlarni to‘liq tozalab o‘z ehtiyojiga ishlatishni yo‘lga qo‘yish zaruriy muammolardan biridir. Yer osti lahimlaridan halq xo‘jaligida foydalanishni yo’lga qo’yish kerak, bu borada masalan 1890 yildan beri Suglinkadan o‘tilgan yer osti lahimida Qrim

Shampan vino zavodi joylashtirilgan. Lahimni kengligi 5,5 m balandligi 6-7 m, umumiy uzunligi 5 km. Lahim mustahkamlagichsiz 118 yildan beri o‘z turg‘unligini saqlagan holda hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda. Lahimdagi harorat o‘zgarmas bo‘lib 13-15^{0}C ni tashkil etadi. Maldoviya Respublikasidagi Krikovskiy vino zavodi ohak toshni qazib olish natijasida hosil bo‘lgan lahimlarga joylashtirgan. Lahimlarni uzunligi 20 km Karpat tog‘i ortidagi Solotvino tuz konini shaxtasida shifoxona va 310 o‘rinli sanatoriya tashkil etilgan. Ular 206 va 282 m chuqurlikdagi tuzni qazib olish natijasida hosil bo‘lgan kameralarga joylashtirilgan. Shunga o‘xshash sanatoriyalar Naxichivan va Avansk tuz shaxtalarida ham tashkil qilingan. Bu sanatoriyalarda nafas olish organlar kasalliklari davolanmoqda.

Polshani “Velichin” tuz konini shaxtalarida konchilik ishlar muzeyi, sport zallar joylashgan va keyingi yillarda sanatoriya ham tashkil etilgan. Murmanski viloyatini Apatit birlashmasini rudniklarida yer ostida sun'iy yorug‘likda sabzavotlar yetishtirilmoqda, xuddi shunday ish Krivoy Rog temir ruda havzasini “Gigant” shaxtasida, Oltoy o‘lkasini polimetall rudniklarida va Samara viloyatini gips rudniklarida ham amaliyotda yaxshi hosil olib ishlatilmoqda. Gips rudnigida sabzavot yetishtirishda umum maydoni 4 ming m^2, kengligi 8-10 metr bo‘lgan kameralardan foydalangan. Yer osti issiqxonalarida yer yuzasidagi issiqxonalarga nisbatan 1.5-2 baravar yuqori biologik massa yetishtirmoqda. Yer osti sharoitida sabzavot yetishtirish yer yuzasida bunyod etilgan issiqxonalarda yetishtirgan sabzavotlarga nisbatan 2-4 baravar arzonga tushmoqda.

Yevropa mamlakatlari amaliyotida yer osti lahimlaridan fodalanish haqida misollar keltiramiz. Shvetsiyada 40 ta gidroelektr stansiyasi ishlab turibdi. Italiyada 30% elektr energiyasini yer osti elektr stansiyalarida ishlab chiqarmoqda. Butun dunyo bo‘yicha ishlab turgan va qurilayotgan yer osti stansiyalari 400 dan ortiq bo‘lib, umumiy quvvati 45 mln. MVt elektr energiyasini ishlab chiqarmoqda. Kameralarni kengligi 15-20 m, balandligi 10-50 m, uznligi 20-220 m. Yer osti elektr stansiyalarini qurilishi yer yuzasida qurgandagiga nisbitan ancha arzonga tushadi. Birinchi yer osti atom elektr stansiyasi Shvetsiyada qurilgan. Hozirgi davrda yer osti AES Shvetsariyada, Fransiyada, Norvegiyada, AQSH da ishlab turibdi. AQSH dagi AES quvvati 1.06 GVt, reaktorining diametri 42 m, balandligi 60 m ni tashkil etadi.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, 2030-2040 yillarga borib shahar atmosferasini buzuvchi-zaharlovchi sanoat korxonalarni, avtomashinalarni turar joylarini yer ostiga ko‘chirish orqali atmosferani sog’lomlashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot:

1. V.R. Rahimov. Foydali qazilma konlarini yer osti usulida qazib olish**:** O'quv qo'llanma. - T.: 2013. - 312 b.

2. Nishonov, A. I., & Toshtemirov, U. T. (2023). STUDY OF THE GRAPH ANALYTIC METHOD OF DETERMINING THE WORKING MODE OF A PUMP DEVICE FOR REDUCING THE MINE FROM GROUNDWATER. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(2), 181-183.

3. Yormatov, O. S., Mamirov, U. M., Yulchiboyev, I. I., Safarov, M. M., & Toshtemirov, U. T. (2023). ELASTICITY-DEFORMATION OF ROCKS OF MINE SOIL WALLS STATUS STUDY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(2),186-184.